

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirining  
2025 yil "23" iyundagi  
180-sonli buyrug'iga  
ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN UROLOGIYA ILMIY-AMALIY  
TIBBIYOT MARKAZI**

**«PRIAPIZM»  
NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK  
PROTOKOLLAR**

Toshkent – 2025

**“KELISHILDI”**

**Respublika ixtisoslashtirilgan  
urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot  
markazi direktori**



**Sh.T. Muxtarov**

“ ” 2025 yil

**«PRIPIZM»  
NOZOLOGIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK  
PROTOKOLLAR**

Toshkent – 2025

## **MUNDARIJA**

<b>«PRIAPIZM» NOZOLOGISINING TASHXISLASH VA DAVOLASH MILLIY KLINIK PROTOKOLI .....</b>	<b>5</b>
<b>«PRIAPIZM» NOZOLOGIYASINING TIBBIY ARALASHUVLARI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL.....</b>	<b>45</b>
<b>«PRIAPIZM» NOZOLOGIYASINING PROFILAKTIKA VA REABILITATSIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOL.....</b>	<b>54</b>

**«PRIAPIZM»  
NOZOLOGISINING TASHXISLASH VA DAVOLASH  
MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

Toshkent – 2025

## 1. KIRISH

Ushbu klinik protokollar Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (RIUIATM), “O‘zbekiston urologlar ilmiy jamiyati”, “O‘zbekiston bolalar urologlar jamiyati” va Toshkent tibbiyot akade-miyasi urologiya kafedrasining mutaxassislari, Evropa urologlari assotsiatsiyasi (EAU) tavsiyalari va soha bo‘yicha olimlarning ma’lumotlari asosida tayyorlagan.

Mualliflar guruhi xalqaro ekspertlarning fikrlarini to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi va klinik protokollar nashr etilgan paytda ekspert-mutaxassislar uchun mavjud bo‘lgan eng haqqoniy ma’lumotlarni ifodalashini ta’kidlash kerak deb hisoblaydilar. Klinik protokollar hech qachon alohida bemorni davolash taktikasini aniqlashda klinik tajribaning o‘rnini bosa olmaydi, aksincha bemorning o‘ziga xos xususiyatlari va nimalarni afzal ko‘rishini hisobga olgan holda tanlov qilishga yordam beradi.

Milliy klinik protokollar XKT-10 – N48.3 va XKT-11 – GB06.1 shifrlari Priapizm (Priapism) bilan kasallangan bemorlarni davolash, rehabilitatsiya va profilaktikalarini olib borishda qo‘llanma hisoblanib, undan Respublikaning barcha tibbiyot davolash-profilaktika muassasalarining urologlari foydalanishlari mumkin.

### Xalqaro kasalliklar tasnifi – XKT-10/11 shifrlari:

XKT-10	
Kod	Nomi
N48.3	Priapizm <a href="https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N48.3">https://icd.who.int/browse10/2019/en#/N48.3</a>

KXT-11	
Kod	Nomi
GB06.1	Priapizm <a href="https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1983776037">https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/en#1983776037</a>

### Milliy klinik protokolni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish sanasi.

Milliy klinik protokol 2025 yilda ishlab chiqilgan. Protokolni qayta ko‘rib chiqish har 5 yilda yoki tashxislash, davolash, rehabilitatsiya va profilaktika bo‘yicha dalillar darajasi o‘zgarishi kuzatilganda amalga oshiriladi.

### Milliy klinik protokolni ishlab chiqish uchun mas‘ul bo‘lgan tashkilot.

Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (RIUIATM).

### Multidistsiplinar ishchi guruh a‘zolari:

**Muxtarov Shuhrat Tursunovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor.

**Akilov Farxod Atullaevich** – Toshkent tibbiyot akademiyasi urologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor.

**Gaybullaev Asilbek Asadovich** – “European Medical University” xususiy tibbiyot universiteti rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor.

**Kariev Saidahrur Saidaslanovich** – Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish markazining Xirurgiya fakulteti dekani, tibbiyot fanlari doktori, dotsent.

**Agzamxo‘jaev Saidanvar Talatovich** – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti urologiya va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori.

**Raxmatullaev Akmal Abadbekovich** – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti bolalar xirurgiyasi kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, dotsent.

**Tillashayxov Mirzag‘olib Nig‘matovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor.

**Axmedov Rustam Nosirovich** – Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi urologiya bo‘limi mudiri, tibbiyot fanlari doktori.

**Rahmatov Maqsud Mirzaevich** – Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi yetakchi mutaxassisi, ftiziourog.

**Umarov Aziz Rustamovich** – Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasi bosh shifokorining akusherlik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari.

**Toirov Bobur Akbarovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi dermatokosmetologiya bo‘limi mudiri, tibbiyot fanlari doktori.

**Kariev Sarvar Sobirjonovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi yetakchi mutaxassisi, nefrolog, tibbiyot fanlari nomzodi.

**Subbotin Mark Borisovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi intensiv terapiya va jonlantirish bo‘limi mudiri.

**Fozilov Abduqodir Abduqahhorovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi yetakchi mutaxassisi, androlog-seksopatologi.

**Adilxo‘jaev Asqar Anvarovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori.

**Inoyatov Umid Nurillaevich** – Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi yetakchi mutaxassisi, patologoanatom.

**Abdufattaev Ulug‘bek Avazjanovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi yetakchi mutaxassisi, ultratovush diagnostikasi shifokori.

**Abdukarimov Boxodir Xoshimovich** – Respublika ixtisoslashtirilgan sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi direktori o‘rinbosari.

**Tohirov Alisher Obidovich** – Toshkent shahar Olmazor tumani ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika bosh shifokori o‘rinbosari.

#### **Mualliflar:**

**Shavaxabov Shavkat Shonasirovich** – t.f.n., RIUIATM direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari.

**Fozilov Abdukodir Abdukaxxorovich** – RIUIATM urolog-andrologi.

**Nuriddinov Xusniddin Zafariddin o‘gli** – RIUIATM ilmiy-laboranti, kichik ilmiy xodim.

#### **Taqrizchilar:**

**Rizoev Xayriddin Xayrulloevich** – t.f.n., Sog‘liqni saqlash vazirligi bosh urologi, Abuali ibni Sino nomli Tojikiston davlat tibbiyot universiteti urologiya kafedrasini dotsenti.

**Nurullaev Rustam Babadjanovich** – t.f.d., “R.B. Nurullaev” xususiy klinikasi direktori.

### **Milliy klinik protokol loyihasining muhokamasi.**

Milliy klinik protokoli Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Ilmiy kengashining 2025-yil \_\_\_\_\_-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi.

### **Milliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash bo‘yicha ekspert xulosasi va tahrirlash:**

**Kariev Saidaxror Saitaslanovich** – Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, urologiya va nefrologiya kafedrasida dotsenti, t.f.d.

**Agzamxodjaev Saidanvar Talatovich** – Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Urologiya va bolalar urologiyasi kafedrasida mudiri, t.f.d.

### **Milliy klinik protokol va standartlarni Sog‘liqni saqlash vazirligining Ekspert guruhi mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan baholash bo‘yicha ekspert xulosasi:**

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

### **Qisqartmalar ro‘yxati**

RSNPMTSU	– Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
SYI	– Siydik yo‘llari infeksiyasi
XKT -10	– Xalqaro kasalliklar tasnifi 10-tashrix
XPN	– Xalqaro patentlanmagan nomi
ID	– Isbotlanganlik darajasi

### **Protokol foydalanuvchilari:**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, markazning yuridik maqomga ega bo‘lgan filiallari, markazning Viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi negizidagi filiallari, Oliy ta‘lim muassasalari negizidagi urologiya bo‘limlari, Viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot poliklinikasi, Tuman/Shahar tibbiyot markazlaridagi urologiya bo‘limlari, Tuman/Shahar ko‘p tarmoqli tibbiyot poliklinikasi urolog-shifokorlari va oilaviy shifokorlari.

### **Ushbu nozologiyada bemorlar toifasi.**

Priapizm bilan xasta erkaklar.

## Dalillarga asoslangan tibbiyotning dalillari darajasi shkalasi.

### Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi (tashxislash aralashuvlari uchun)

Dalillarning isbotlanganlik darajasi	
1	Referens usul yordamida nazorat ostida o'tkazilgan tadqiqotlarning tizimli sharhlari yoki meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli sharhi
2	Referens usul nazorati bilan o'tkazilgan ayrim tadqiqotlar yoki ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi bundan mustasno
3	Referens usul yordamida izchil nazoratsiz yoki o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan referens usul yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar yoki randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi
5	Muolajaning ta'sir mexanizmi asoslari yoki ekspertlar xulosasi

### Dalillarning isbotlanganlik darajasini baholash shkalasi (profilaktika, davolash va reabilitatsion tadbirlar uchun)

Dalillarning isbotlanganlik darajasi	
1	Meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi
2	Ayrim randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi bundan mustasno.
3	Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat yoki holatlar seriyasi tavsifi, "holat-nazorat" tadqiqoti
5	Muolajaning ta'sir mexanizmi asoslari (klinika oldi tadqiqotlar) yoki ekspertlar xulosasi

### Tavsiyalarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

Tavsiyalarning ishonchlilik darajasi	
A	Kuchli tavsiya (barcha ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o'rinni egallaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va qiziqtirayotgan natijalar bo'yicha xulosalari kelishilgan)
B	SHartli tavsiya (ayrim ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o'rinni egallaydi, ayrim tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va/yoki qiziqtirayotgan natijalar bo'yicha xulosalari kelishilmagan)
C	Kuchsiz tavsiya (sifatli dalillar keltirilmagan, ko'rib chiqilgan samaradorlik mezonlari, natijalar) muhim o'rinni egallamaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati past va qiziqtirayotgan natijalar bo'yicha xulosalari kelishilmagan.

## 2. ASOSIY QISM.

### 2.1. Kirish.

Priapizm bu jinsiy olatning tegishli stimulyatsiya mavjud bo'lmaganda uzoq muddatli, qattiq ereksiyaning saqlab turishi ko'rinishidagi buzilishidir. Ta'riflar ereksiyaning davomiyligi bo'yicha farq qiladi, ammo to'rt soat yoki undan ko'proq davom etadigan har qanday ereksiya odatda priapizm hisoblanadi.

Ushbu kasallikning uchta asosiy toifasi mavjud: ishemik, noishemik va qaytalanuvchi (retsdivlanuvchi). Priapizmning ishemik sabablari shoshilinch holat bo'lib, to'liq va doimiy erektil disfunktsiya bilan asoratlanishi mumkin bo'lgan jinsiy olatni shikastlanishining oldini olish uchun darhol aralashuvni talab qiladi. Ushbu kasallikni shoshilinch davolash detumestsentsiyaga erishishga qaratilgan [1, 2]. Priapizm bu jinsiy olatni ereksiya va detumestsentsiyani nazorat qiladigan gemodinamik tizimlarning buzilishi kasalligidir. Priapizm nisbatan kam uchraydi, 100 000 kishiga 1,5 tani tashkil qiladi [3].

Eretil qobiliyatning funktsional tiklanishi uchun erta aralashuv juda muhim ahamiyatga ega. Agar davolamasa, jinsiy olat to'qimalarining nekrozi va oxir-oqibatda doimiy erektil disfunktsiya bilan birga fibroz yuzaga keladi. Priapizmni zamonaviy davolash uchta maqsadga erishishga qaratilgan: shoshilinch xolatni bartaraf etish, erektil funktsiyani saqlab qolish va qaytalanishning oldini olish [4].

### 2.2. Umumiy ta'rifi.

**Priapizm** – jinsiy olatning jinsiy stimulyatsiya bilan bog'liq bo'lmagan 4 soatdan ortiq davom etadigan barqaror ereksiyasi [5, 6].

### 2.3. Priapizmning tasnifi.

Shoshilinch vaziyatlarda priapizmning ikkita asosiy patofiziologik variantini farqlash muhim: ishemik (past oqim) va ishemik bo'lmagan (yuqori oqim) priapizm. Ushbu variantlarning har biri o'ziga xos etiologiyaga, diagnostika mezonlariga va davolash usullariga ega [5].

**Ishemik priapizmni** jinsiy olatning kompartment sindromi deb hisoblash mumkin. Priapizmning bu turi shoshilinch aralashuvni talab qiladi, chunki u jinsiy olatning fibroziga va erektil disfunktsiyaga (ED) olib kelishi mumkin. Ishemik priapizm to'qimalarda kislorod etishmasligi tufayli yuzaga keladi, bu esa 4-10 soatdan ortiq davom etadigan uzoq muddatli ereksiya paytida giperkarbiya va atsidozga olib keladi. Ishemik priapizm yo'qolmaydigan oddiy ereksiyadan keyin paydo bo'lishi mumkinligini ta'kidlash muhim.

**Ishemik bo'lmagan priapizm**, boshqa tomondan, ko'pincha chanoq suyagi yoki jinsiy olatning jarohatlanishi bilan bog'liq, masalan, yiqilish vaqtida yoki zarba natijasida olingan jarohatlar. Bunday holda, kavernoza arteriya yoki kavernoza sinuslarning buzilishi sodir bo'ladi, bu arterial-sinusoidal oqma (fistula) shakllanishiga olib kelishi mumkin. Ishemik bo'lmagan priapizm simptomlari jarohatdan bir necha soat yoki kunlar o'tgach paydo bo'lishi mumkin va odatda bir necha kun yoki hafta davomida tungi ereksiyadan keyin seziladigan qisman barqaror ereksiyaning o'z ichiga oladi [6].

### **3. TEKSHIRUV USULLARI, USLUBLARI, TIBBIY MUOLAJALAR YONDOSHUVLARI VA TASHXISLASH JARAYONLARI**

#### **3.1. Shikoyat, anamnez va obyektiv ko'rik.**

Priapizm bilan hastalangan bemorni dastlabki baholashda anomal ereksiyaning aniq davom etish vaqtini aniqlash kerak. Holatning tarixi va davomiyligi uning asosiy etiologiyasini aniqlashda foydali bo'lib, bemor his qilayotgan priapizmning muayyan turini aniqlashga yordam beradi. Muhim klinik savollar o'z ichiga simptomlarning davomiyligi, qo'llanilgan har qanday davolash yoki in'ektsiyali terapiya, priapizm epizodigacha bo'lgan erektillik funktsiya, priapizmning oldingi epizodlari va davolash usullari, joriy dori vositalari va priapizm rivojlanishiga sabab bo'ladigan o'roqsimon-hujayrali anemiya yoki jinsiy olat, chanoq suyagi yoki oraliqning shikastlanishi kabi har qanday asosiy kasalliklar tarixini oladi. Taqiqlangan narkotik moddalarini iste'mol qilish va alkogoldan mastlik holatlari ishemik priapizm holatlarining 21 foizida sababchi omillar bo'lib hisoblanadi [5]. Bundan tashqari, og'riqning mavjudligi yoki yo'qligi ushbu kasallikning ishemik va noishemik sabablarini farqlashga yordam beradi, chunki og'riqsiz namoyon bo'lishi noishemik patologiyani nazarda tutadi. Faqat juda kamdan-kam hollarda va o'ta og'ir holatlarda ishemik priapizm gangrena bilan birga kechadi, bu oxir-oqibat jinsiy olatning qisman yoki to'liq nekroziga olib keladi [7].

Fizikal ko'rikda arterial yuqori oqim priapizmini ko'rsatishi mumkin bo'lgan va ishemik holatlarda odatda mavjud bo'lmaydigan har qanday pulsatsiyalar mavjudligini aniqlash uchun jinsiy olatni paypaslab ko'rish kerak. Ishemik priapizmدا kavernoza (g'ovaksimon) tanachalar qattiq va to'liq ereksiyalangan bo'ladi. Ular odatda paypaslashda biroz og'riqli. Olat boshchasi yumshoq bo'ladi yoki faqat qisman qon bilan to'ladi, lekin qattiq bo'lmaydi. Og'riqlik yoki qisman shishgan kavernoza qismining yo'qligi odatda noishemik kasallikning tashxisi to'g'risida ko'proq dalolat beradi.

Noishemik yoki yuqori oqimli priapizmدا odatda ishemik priapizmga qaraganda qattiqlikning pasayishi va ancha kamroq darajada og'riq kuzatiladi. Igna bilan in'ektsiya qilish, oraliqning jarohatli shikastlanishi yoki yaqinda o'tkazilgan urologik muolajalar asosiy qo'zg'atuvchi holat bo'lishi mumkin. Jinsiy a'zoldan tashqari, oraliq va qorin bo'shlig'ini travma, ko'karish mavjudligi yoki hatarli bo'lishi ehtimoli belgilari uchun puxtalik bilan tekshirish kerak. Batafsil anamnez va fizik tekshiruv asosiy etiologiyani aniqlashga yordam beradi.

#### **3.2. Priapizmni obyektiv tekshirish va diagnostika qilish.**

Priapizm diagnostikasi ishemik yoki noishemik priapizm turini aniqlash uchun anamnezni puxta yig'ish va fizikal ko'rikdan boshlanadi. Asosiy diagnostika mezon bo'lib, ereksiya davomiyligi va og'riqning mavjudligi hisoblanadi. Kuchli og'riq va kavernoza tanachalarining qattiqligi bilan birga kechadigan ishemik priapizmда qaytarilmas oqibatlarining oldini olish uchun shoshilinch diagnostika juda muhimdir.

Tashhisni tasdiqlash va priapizm turlarini farqlash uchun kavernoza tanachalardan qon gazlarining tahlillari foydaniladi. Ishemik priapizm holatida qon to'q rangda, tarkibida kislorod darajasi past ( $pO_2 < 30$  mm.sim.ust.), karbonat angidrid yuqori darajada ( $pCO_2 > 60$  mm.sim.ust.) va atsidoz ( $pH < 7,2$ ) bo'ladi. Noishemik priapizmда qon ko'rsatkichlari me'yorga yaqinroq bo'ladi.

Shuningdek, jinsiy olatning ultratovushli doppler tekshiruvini o'tkazish ham muhimdir, bu kaverno arteriyalarda qon oqimini baholashga yordam beradi. Ishemik priapizm qon oqimi mavjud bo'lmaydi yoki sezilarli darajada pasaygan bo'ladi, noishemik priapizm esa qon oqimi normal yoki ko'paygan bo'ladi. Qo'shimcha tarzda, ehtimolli o'smalar yoki qon tomir anomaliyalarini aniqlash uchun magnit-rezonans tomografiya (MRT) buyurilishi mumkin.

### 3.3. Asosiy va qo'shimcha laborator tekshiruv usullari.

Laboratoriya diagnostikasi usullari bemorning ahvolini baholash va davolash taktikasini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat tashxisni tasdiqlashga, balki mumkin bo'lgan patologiyalarni aniqlashga yordam beradi, bu ayniqsa murakkab va noaniq klinik holatlarda muhim hisoblanadi.

#### Asosiy laborator tekshiruv usullari:

1. *Umumiy qon tahlili (UQT)*. Bu yallig'lanish belgilari (leykotsitoz, ECHT ortishi), anemiya (gemoglobin darajasining pasayishi), trombositopeniya yoki – qon hujayralarining hosil bo'lishi tizimining boshqa buzilishlarini aniqlashga yordam beradigan birinchi va eng axborotli testlardan biridir. UQT shuningdek, bemor tanasining umumiy holatini baholashga imkon beradi.
2. *Biokimyoviy qon tahlili*. Elektrolitlar darajasini, jigar va buyraklar faoliyatini (kreatinin, mochevina, ALT, AST), glyukoza darajasini, lipidlarni va metabolik holatning boshqa ko'rsatkichlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Ushbu tahlil kasallikni qo'zg'atadigan yoki murakkablashtiradigan metabolik kasalliklarni istisno qilish uchun muhimdir.
3. *Qondagi gazlar tahlili*. Ushbu test priapizm turlarini farqlash uchun amalga oshiriladi. Ishemik priapizm holatida, kaverno tanachalardagi qon tarkibida kislorod miqdori kam darajada, karbonat angidrid yuqori darajada va pH past darajada bo'ladi, bu qon oqimi va kislorod almashinuvining buzilganligini ko'rsatadi.
4. *Umumiy siydik tahlili (UST)*. Urologik kasalliklarga hamroh bo'lishi mumkin bo'lgan siydik yo'llari infeksiyalari belgilarini aniqlash imkonini beradi. Oqsil, leykotsitlar, eritrotsitlar yoki bakteriyalar mavjudligi siydik tizimidagi yallig'lanish jarayonlari xaqida dalolat berishi mumkin.

#### Qo'shimcha laborator tekshiruv usullari:

1. *Koagulogramma*. Qon ivish tizimini baholash gemostaz buzilishlarini istisno qilish uchun zarur, ayniqsa tromb hosil bo'lish xavfi mavjud bo'lganda yoki jarrohlik aralashuvini o'tkazishni rejalashtirishda. U protrombin vaqtini (PV), xalqaro normallashtirilgan nisbatni (XNN), fibrinogen darajasini va boshqa parametrlarni aniqlashni o'z ichiga oladi.
2. *Gormonal tekshiruvlar*. Testosteron, prolaktin, lyuteinlovchi gormon (LG) va follikulostimullovchi gormon (FG) darajasini o'rganish, agar andrologik kasalliklarning sababi bo'lishi mumkin bo'lgan gipogonadizm kabi gormonal kasalliklarga shubha qilinganda foydali bo'lishi mumkin.
3. *Bakteriologik tekshiruvlar*. YUqumli asoratlarga shubha qilingan hollarda patogen mikroorganizmlarni aniqlash va ularning antibiotiklarga sezgirligini aniqlash uchun siydik yoki boshqa biologik suyuqliklarni ekish amalga oshiriladi. Bu usul maqsadli ravishda antibiotik terapiyani tanlashga yordam beradi.

4. *Sitologik tekshiruv.* Agar bemorda xatarli jarayonlarning mavjudligiga shubha qilinganda (masalan, gematuriya bo'lsa), siydik yoki boshqa biologik materiallarning tsitologik tekshiruvi atipik hujayralarni aniqlashi mumkin, bu esa keyingi chuqur tekshiruvni talab qiladi.
5. *Molekulyar genetik testlar.* Ba'zi hollarda, ayniqsa, irsiy yoki genetik patologiyalarga shubha tug'ilganda, ba'zi kasalliklarga moyillik bilan bog'liq mutatsiyalar yoki polimorfizmlarni aniqlash uchun genetik tekshiruvlarni o'tkazishga ko'rsatmalar bo'lishi mumkin.

Laboratoriya usullari klinik va instrumental tekshiruvlar bilan birgalikda diagnostikaga kompleks yondashuvni ta'minlaydi va har bir bemor uchun eng samarali davolash taktikasini tanlash imkonini beradi.

### 3.4. Asosiy va qo'shimcha instrumental tekshiruv usullari.

Priapizmni tashxislashning instrumental usullari uning shaklini (ishemik yoki noishemik) aniqlashga va jinsiy olatdagi strukturaviy o'zgarishlarni baholashga qaratilgan bo'lib, bu to'g'ri davolash taktikasini o'z vaqtida tanlash va jiddiy asoratlarni oldini olish imkonini beradi.

#### **Asosiy instrumental tekshiruv usullari:**

1. *Jinsiy olat tomirlarining doppler ultratovush tekshiruvi (dopplerografiya).* Dopplerografiya ishemik va noishemik priapizmni differentsial diagnostikasining asosiy usuli hisoblanadi. Bu usul jinsiy olatning g'ovaksimon (kavernoz) tanachalarida qon oqimini baholash imkonini beradi. Ishemik priapizmدا kavernoz tanachalarni oziqlantiradigan arteriyalarda qon oqimining yo'qligi yoki sezilarli darajada pasayishi kuzatiladi. Noishemik priapizm mavjud bo'lsa, qon oqimi saqlanishi yoki ko'payishi mumkin, bu arteriovenoz shuntning mavjudligini ko'rsatadi.
2. *Kavernozografiya.* Bu qon tomirlari va arteriovenoz shuntlarning shikastlanishini aniqlash uchun ishlatiladigan rentgenologik tekshiruv usulidir. Jinsiy olatning ichiga kontrastli vosita yuboriladi, shundan so'ng bir qator rentgen suratlari olinadi, bu kavernoz tanachalarning tomirli to'rini vizuallashtirish imkonini beradi. Ushbu usul ko'proq noishemik priapizmدا arteriovenoz fistula (oqma) mavjudligini yoki jarohatlanishdan kelib chiqqan tomirlarning shikastlanishini baholash uchun qo'llaniladi.
3. *Jinsiy olat va chanoq a'zolarining MRT (magnit-rezonans tomografiya).* MRT - yumshoq to'qimalarni vizuallashtirishning yuqori darajali axborotli usuli bo'lib, u kavernoz tanachalarning holatini baholash va nekroz yoki fibroz maydonlarini, ayniqsa uzoq davom etgan ishemik priapizmni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin. MRT shuningdek, chanoq sohasining boshqa mumkin bo'lgan patologiyalarini, masalan, yangi o'smalar yoki priapizmni qo'zg'atadigan yallig'lanish jarayonlarini istisno qilishga yordam beradi.

#### **Qo'shimcha instrumental tekshiruv usullari:**

1. *Kichik chanoq a'zolarining ultratovush tekshiruvi (UTT).* Kichik chanoq a'zolarining ultratovush tekshiruvi prostata bezi, qovuq va urug' pufakchalarining holatini baholashga imkon beradi. Bu usul priapizm yoki qorinning pastki qismidagi og'riqlar yoki siyish qiyinlishuvi kabi hamroh alomatlariga olib kelishi

mumkin bo'lgan boshqa siydik-tanosil tizimlari patologiyalarini istisno qilish uchun foydalidir.

2. *Jinsiy olat angiografiyasi*. Asosan, noishemik priapizmni tashxislash va keyingi davolash uchun, ayniqsa jinsiy olat arteriyalarining shikastlanishiga shubha qilinganida, travmada qo'llaniladi. Ushbu usul arteriovenoz shuntning joylashish joyini aniq aniqlash va uning embolizatsiyasini rejalashtirish imkonini beradi, bu ham diagnostik, ham davolovchi muolaja bo'lishi mumkin.
3. *MSKT*. MSKT priapizmni tashxislashning asosiy usuli bo'lmasa-da, u kichik chanoq a'zolarining holatini baholash va noishemik priapizmga olib kelishi mumkin bo'lgan o'smalar, travmalar yoki boshqa kasalliklarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.
4. *Retrograd va miksion uretrografiya*. Garchi uretrografiya priapizmni tashxislashning asosiy usuli bo'lmasa-da, uni alohida holatlarda, ayniqsa travmatik priapizm yoki ereksiyaning uzoq muddatli va og'riqli holati bilan birga kechadigan uretraning shikastlanishiga shubha qilingan hollarda qo'llash mumkin. Misol uchun, priapizmga olib keladigan jinsiy olat yoki oraliqning jarohatlanishida, uretraning yorilishi yoki shikastlanishini istisno qilish kerak bo'lishi mumkin.
5. *Sistouretroskopiya*. Ushbu usul, uretra va siydik pufagining ichki yuzasini ularning shikastlanishi yoki anatomik anomal holatlarga shubha qilinganda, vizuallashtirish imkonini beradi. Ba'zi hollarda tsistoskopiya priapizmga o'xshash alomatlar bilan namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa urologik kasalliklarni tashxislash va istisno qilishda foydali bo'lishi mumkin.

Priapizmni tashxislashning instrumental usullari kasallikning shaklini aniq aniqlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni aniqlash imkonini beradi. Jinsiy olat tomirlarining dopplerografiyasi va MRT ishemik va ishemik bo'lmagan priapizmni differentsial tashxislashda yordam beradigan asosiy usullar bo'lib, sabablarni aniqlash va hamroh patologiyalarni baholash uchun kichik chanoq a'zolarining UTT va jinsiy olatni angiografiyasi kabi yordamchi usullardan foydalanish mumkin.


### **3.6. Boshqa mutaxassislar maslahati.**

Aksariyat hollarda priapizmni tashxislash va davolashda boshqa mutaxassislar maslahatidan o'tish talab etilmaydi. Biroq, priapizmning asoratlangan shakllarida yoki hamroh kasalliklar mavjud bo'lganda, tegishli tibbiyot sohasidagi mutaxassislar maslahatidan o'tish talab qilinishi mumkin. Birinchi navbatda, ishemik priapizmga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan o'roqsimon- hujayrali anemiya yoki qon ivishining boshqa turdagi buzilishlari kabi gematologik kasalliklarga shubha bo'lganda, gematolog maslahati zarur bo'ladi. Gematolog qonning holatini baholashga va priapizmning qaytalanuvchi epizodlarini oldini olish uchun asosiy kasallikni davolash taktikasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Priapizm rivojlanishiga yordam berishi mumkin bo'lgan gormonal disfunktsiyalar kabi endokrin kasalliklarni aniqlashda endokrinologni jalb qilish ham muhimdir. Travmatik yoki nevrogen priapizm holatlarida asab tizimi yoki to'qimalarining shikastlanishini tashxislash va davolash uchun nevrolog yoki travmatolog maslahati talab qilinishi mumkin. Ushbu ko'p tarmoqli yondashuv priapizmning asosiy

sabablarini o‘z vaqtida tashxislash va bartaraf etish imkonini beradi, bu esa ayniqsa erektil disfunktsiya kabi uzoq muddatli asoratlarning oldini olish uchun ahamiyatlidir.

### 3.5. Tashxislash algoritmi.



### 3.7. Differentsial tashhis va qo‘shimcha tekshiruvlarni asoslash

#### Priapizmning har xil turlarini differentsial tashxisi

Tashhis	Differentsial diagnostika uchun asos	Tekshiruvlar	Tashxisni istisno qilish mezonlari
Ishemik priapizm	Og‘riq, uzoq muddatli ereksiya (4 soatdan ortiq), kavernoz	Dopplerografiya bilan UTT, kavernoz qonning	UTTga ko‘ra kavernoz tanachalarda normal qon oqimi, kavernoz

	tanachalarga arterial qon oqimining yoʻqligi bilan tavsiflanadi, bu esa nekrozga olib kelishi mumkin.	aspiratsiyasi, qon gazining tahlili, laktatlarga biokimyoviy qon tahlili	qondagi normal gazlar, ogʻriqning yoʻqligi yoki sezilarli ishemik oʻzgarishlar
Noishemik priapizm	Ogʻriq yoʻq, ancha yumshoq ereksiya, arterial qon oqimining saqlanishi, koʻpincha chot yoki jinsiy olatni jarohatlanishi natijasida yuzaga keladi.	Dopplerografiya bilan UTT, kavernozografiya	UTTga koʻra arterial qon oqimining pasayishi, ishemiya belgilari bilan qon aspiratsiyasi (past darajadagi kislorod, yuqori darajada karbonat angidrid), kuchli ogʻriq sindromi
Jinsiy olatning chuqur tomirlari trombozi	Jinsiy olatning venoz tizimida tromblar paydo boʻlishi mumkin, bu esa kuchli boʻlmagan ogʻriqlar bilan uzoq muddatli ereksiyaga olib kelishi mumkin	Koagulogramma, Jinsiy olatning UTT, MRT	UTT yoki MRTda jinsiy olatni tomirlarida trombnng yoʻqligi, koagulogrammaning normal koʻrsatkichlari, arterial va venoz qon oqimining saqlanishi
Oʻroqsimon-hujayrali anemiyada priapizm	Ereksiya anemiyada eritrotsitlarining agregatsiyasi natijasida mikrotsirkulyatsiya va qon tomirlarining okklyuziyasi natijasida yuzaga kelishi mumkin	Umumiy qon tahlili, gemoglobin elektroforezi, koagulogramma	Umumiy qon tahlilida oʻroqsimon eritrotsitlarning yoʻqligi, normal gemoglobin darajasi, koagulyatsion buzilish belgilari yoʻq
Jinsiy olatning yoki chanoq aʼzolarining xavfli oʻsmasi	Oʻsma jarayonlari tomirlarni siqib qoʻyishi va venoz obstruksiyani yoki arterial anomaliyalarni keltirib chiqarishi mumkin	Kichik chanoq MRT, agar mavjud boʻlsa, oʻsma shakllanishining biopsiyasi, PET-KT	MRT va boshqa vizual tadqiqotlarda oʻsmalarning yoʻqligi, salbiy biopsiya, Dopplerografiya maʼlumotlariga koʻra normal qon oqimi dinamikasi
Neyrogen priapizm	Markaziy yoki periferik asab tizimining shikastlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin, bu	Bosh miya va orqa miya MRT, elektroneyromiografiya	MRT maʼlumotlariga koʻra MAT patologiyalarining yoʻqligi, periferik asab tizimining normal funksiyasi, nevrologik

	kavernoz tanachalarda qon oqimini tartibga solishning buzilishiga olib keladi		kasalliklarning yoʻqligi, anomal venoz yoki arterial qon oqimining yoʻqligi
--	---	--	---

### Priapizmning boshqa kasalliklar bilan differentsial tashxisi.

Tashhis	Differentsial diagnostika uchun asos	Tekshiruvlar	Tashxisni istisno qilish mezonlari
Oʻtkir prostatit	CHot va qorinning pastki qismida ogʻriqlar, dizuriya, isitma; erektil disfunktsiya bilan birga kechishi mumkin, ammo barqaror ereksiya bilan emas	Barmoqli rektal tekshiruv, prostata bezi UTT, umumiy siydik tahlili, PSA	Siydikda infektsiya yoʻqdigi, UTT maʼlumotlariga koʻra prostataning normal oʻlchamlari, rektal tekshiruvda ogʻriq yoʻqligi
Jinsiy olat travmasi	Travmatik ereksiya yoki jinsiy olatning deformatsiyasi, gʻovaksimon tanachalarning uzilishi ili jinsiy olatning sinishi holati boʻlishi mumkin	Jinsiy olatni MRT yoki UTT, singanligiga shubha boʻlganda rentgenografiya	MRT yoki UTTda gʻovaksimon tanachalarning shikastlanishining yoʻqligi, jinsiy olatning normal tuzilishi, gematoma yoki shishning yoʻqligi
Chanoq tomirlari trombozi	Venoz turgʻunligi va chanoq tomirlarining trombalanishi ogʻriq va uzoq muddatli ereksiyaga olib kelishi mumkin, ammo kuchli ishemiyasiz	Chanoq tomirlarining dopplerografiya bilan UTT, kichik chanoq KT yoki MRT	UTT yoki MRT maʼlumotlariga koʻra chanoq tomirlarida tromblarning yoʻqligi, normal venoz oqib chiqishi, kuchli ogʻriqning yoʻqligi
Jinsiy olat limfostazi	Jinsiy olatning qon aylanishining buzilishisiz limfatik	CHanoqning limfa tugunlarining limfografiyasi,	Tekshiruv maʼlumotlariga koʻra, limfa

	shishishi, ogʻriqlik boʻlishi mumkin, ammo barqaror ereksiya mavjud emas	UTT	tugunlarining kattalashishi yoki limfa buzilishlari mavjud emasligi
Jinsiy olat saratoni	Xatarli oʻsmalar qon tomirlarini siqib qoʻyib, ereksiya va ogʻriqni keltirib chiqarishi, yaralar yoki oqindi bilan birga kechishi mumkin	Jinsiy olat MRT, biopsiyasi, PET-KT	MRE yoki biopsiya maʼlumotlariga koʻra oʻsimta shakllanishining yoʻqligi, tekshirilgan materialda xatarli hujayralarning yoʻqligi
Periferik neyropatiya	Nerv oʻtkazuvchanligining buzilishi ereksiyaga olib kelishi mumkin, ammo ogʻriqsiz va ishemiya belgilarisiz; hamroh alomatlar sensor buzilishlarni oʻz ichiga oladi	Elektroneyro-miografiya, umurtqa MRT	ENMG maʼlumotlariga koʻra, normal nerv oʻtkazuvchanligi, MRTda asab tizimining shikastlanish belgilari yoʻqligi, ishemik priapizmga xos boʻlgan ogʻriqlarning yoʻqligi

## 4. AMBULATORIYA DARAJASIDA DAVOLASH.

Priapizm shoshilinch tibbiy yordamni talab qiladigan kechiktirib bo'lmaydigan holatdir, shuning uchun ambulatoriya darajasida davolash juda cheklangan. Agar priapizmga shubha bo'lsa, bemorni zudlik bilan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish uchun statsionar muassasaga yuborish kerak. Biroq, kasalxonaga yotqizilgunga qadar ambulatoriya darajasida birinchi yordam choralari va qo'llab-quvvatlovchi terapiya o'tkazilishi mumkin. Priapizm shakliga qarab (ishemik, noishemik, qaytalanuvchi) davolash quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

### 4.1. Dori vositalarisiz (nomedikamentoz) davolash.

Ambulatoriya darajasida dori-darmonsiz choralar kasalxonaga yotqizishdan oldin bemorning ahvolini barqarorlashtirishga qaratilgan. Biroq, ularning samaradorligi to'g'risida ma'lumotlar yo'q [8].

- *Pozitsion manipulyatsiya.* Bemorga venoz oqib chiqishini yaxshilash uchun balandroq holatni saqlash tavsiya etiladi. Bu ishemik priapizmga vaqtinchalik engillik berishi mumkin.
- *Sovuq kompresslar.* Oraliq yoki chanoq sohasiga muz qo'yish tomirlarning torayishi va kavernoza tanachalarga qon oqimini kamayishiga sabab bo'lishi mumkin, bu esa ishemik bo'lmagan priapizmdan vaqtinchalik engillik beradi.

### 4.2. Dori vositalari bilan (medikamentoz) davolash.

Ambulatoriya sharoitida dori-darmonli terapiya bemorni statsionarga olib borishdan oldin uning ahvolini barqarorlashtirish uchun qo'llaniladi. Dori-darmonli choralar cheklangan, chunki ambulatoriya darajasida ularning samaradorligi past:

- *Analgetiklar.* Og'riq sindromini to'xtatish uchun qo'llaniladi. Nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar (NSYAQP) yoki kuchli og'riqlarda, odatda, opioidlar buyuriladi.
- *Alfa-adrenomimetiklar.* Ambulatoriya sharoitida kavernoza tanachalarga qon oqimini kamaytirish uchun alfa-adrenomimetiklar (masalan, psevdofedrin) og'iz orqali qabul qilinishi mumkin. Biroq, bu vaqtinchalik chora bo'lib, yakuniy davolash statsionar sharoitda amalga oshirilishi kerak.

### Ambulatoriya sharoitida priapizmga qo'llaniladigan asosiy dori preparatlari ro'yxati

Farmakoterapevtik guruh	Dori vositasining XPN	Qo'llash usuli	Isbotlan-ganlik darajasi	Havolalar
Narkotik bo'lmagan analgetiklar	Metamizol natriy	500 mg tabletkalar, in'ektsiya uchun eritma 250 mg/ ml; 500 mg/ml	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/8b7cd7c0-75af-4b20-8537-fc1138761252">https://mediqlab.com/mnn/8b7cd7c0-75af-4b20-8537-fc1138761252</a>
	Paratsetamol	Tabletkalar 200 mg; 500 mg, suspenziya 120 mg/5 ml,	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/097dc237-6ef0-43ef-af66-2c662cf1b29f">https://mediqlab.com/mnn/097dc237-6ef0-43ef-af66-2c662cf1b29f</a> <a href="https://drugs.ncats.io/drug/36209ITL9D">https://drugs.ncats.io/drug/36209ITL9D</a>

		sirop 2,4% 40 ml; 50 ml; 60 ml; 90 ml; 100 ml; sham 50 mg; 100 mg; 125 mg; infuziya uchun eritma 250 mg 10 mg/ml 200 mg/ 20 ml; 1000 mg/ 100 ml		
Nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar	Diklofenak	Tabletkalar 25 mg; 46,5 mg; 50 mg; 75 mg; 100 mg 75 mg; kapsulalar 100 mg 25 mg/ml; in'ektsiya uchun eritma 75 mg/3 ml; 1 ml; 3 ml	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/f824419e-4a10-499e-955d-755bb9f4b7c7">https://mediqlab.com/mnn/f824419e-4a10-499e-955d-755bb9f4b7c7</a> <a href="https://drugs.ncats.io/drug/14408QL0L1">https://drugs.ncats.io/drug/14408QL0L1</a>
	Ketoprofen	In'ektsiya uchun eritma 50 mg/ml; 100 mg/2 ml, kapsulalar 50 mg; 100 mg; tabletkalar 150 mg; 200 mg 100 mg; 150 mg forte, Rektal shamlar 100 mg	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/36a4558f-e3ca-46d1-a922-b3ceadab881d">https://mediqlab.com/mnn/36a4558f-e3ca-46d1-a922-b3ceadab881d</a>
	Ibuprofen	Tabletkalar 200 mg; 400 mg; 800 mg 200 mg; 300 mg; kapsulalar 400 mg, 100 mg/5 ml; 200 mg/5ml; 60 ml; 100 ml; 120 ml; 150 ml; 200 ml suspenziya, infuziya uchun eritma 400 mg/4 ml 4 ml; sirop 800 mg/8 ml 8 ml 100 mg/5 ml, shamlar 60 mg, 125 mg	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/9c694f61-32ef-45e7-9500-6e19acd47f73">https://mediqlab.com/mnn/9c694f61-32ef-45e7-9500-6e19acd47f73</a>
	Deksketoprofen	Tabletkalar 25 mg in'ektsiya uchun eritma 25 mg/2 ml; 50 mg/ 2ml	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/bee5cfc4-f97b-4f64-b7d8-e8c950345480">https://mediqlab.com/mnn/bee5cfc4-f97b-4f64-b7d8-e8c950345480</a> <a href="https://drugs.ncats.io/drug/6KD9E78X68">https://drugs.ncats.io/drug/6KD9E78X68</a>
	Meloksikam	Tabletkalar 7,5 mg; 15 mg,	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/7c563906-24f8-4a4f-8abd-69b1fc313bbe">https://mediqlab.com/mnn/7c563906-24f8-4a4f-8abd-69b1fc313bbe</a>

		in'ektsiya uchun eritma 10 mg/1,5 ml; 15 mg/1,5 ml; 5 mg/ml 3 ml, shamlar 7,5 mg; 15 mg		
	Ketorolak	Tabletkalar 7,5 mg; 10 mg in'ektsiya uchun eritma 30 mg/ml 1 ml; 2 ml	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/61f5095c-4fab-4386-b191-d23ab8d934a1">https://mediqlab.com/mnn/61f5095c-4fab-4386-b191-d23ab8d934a1</a>
Alfa- adrenomi- metiklar	Psevdoefedrin	Kuniga 2-3 marta 30- 60 mg dan	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/8e3d6b30-bdee-454b-927e-f8b27bd159b6">https://mediqlab.com/mnn/8e3d6b30-bdee-454b-927e-f8b27bd159b6</a>

#### 4.3. Jarrohlik aralashuvi.

Jarrohlik aralashuvi ambulatoriya darajasida amalga oshirilmaydi, chunki priapizm ixtisoslashgan operativ yordamni talab qiladi, masalan, kavernoza tanachalardan qonni aspiratsiya qilish yoki shuntlash. Priapizm mavjud bo'lgan bemorlar shoshilinch jarrohlik aralashuvi uchun maxsus urologiya bo'limiga yuborilishi kerak.

#### 4.4. Keyingi davolash.

Priapizmning o'tkir epizodi to'xtatilgandan keyin, bemorlar, ayniqsa kasallikning qaytalanuvchi shakllarida, qaytalanishlarning oldini olish uchun dinamik kuzatuv olib borishni taqozo etadi. Keyingi ambulator olib borish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Asosiy kasallikni tuzatish (o'roqsimon hujayrali anemiya, trombofiliya, endokrin buzilishlar).
- Qaytalangan priapizmga profilaktik dori-darmonli terapiyani buyurish.
- Hayot tarzini o'zgartirish va xavf omillarini tuzatish bo'yicha maslahatlar (chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, ayrim dori-darmonlarni qabul qilish).

#### 4.5. Davolash samaradorligi va usullarning xavfsizligi indikatorlari.

Ambulator chora-tadbirlarning samaradorligi mezonlari bo'lib quyidagilar xizmat qilishi mumkin:

- Og'riq sindromining to'xtashi.
- Terapiya boshlanganidan keyin 2-4 soat ichida ereksiyaning pasayishi yoki uning to'liq bartaraf etilishi.
- Dastlabki 24 soat ichida qaytalanishlarning bo'lmasligi.

Davolash usullarining xavfsizligi indikatorlari asoratlarning mavjud emasligi hisoblanadi, masalan:

- Sovuq kompreslarni qo'llash joyidagi infeksiyalar.
- Dori-darmonlardan nojo'ya ta'sirlar (gipoteniya, alfa-adrenomimetiklarni qo'llashda taxikardiya).

Priapizmni faqat statsionar sharoitda samarali davolash mumkin, shuning uchun ambulator choralar faqat vaqtinchalik va qo'llab-quvvatlovchi xususiyatga ega bo'ladi.

## 5. SHIFOXONAGA YOTQIZISH UCHUN KO'RSATMALAR

Priapizm shoshilinch choralar ko'rishni talab qiladigan holat bo'lib, davolanishni kechiktirish jinsiy olat to'qimalarining shikastlanishi, shu jumladan fibroz va erektil disfunktsiyaga olib kelishi mumkin. SHunga ko'ra, kasalxonaga yotqizish deyarli har doim shoshilinch hisoblanadi, kasalxonaga yotqizishning rejalashtirilgan holatlari kamdan-kam uchraydi va faqat priapizmning ayrim qaytalanuvchi shakllariga taalluqlidir.

### 5.1. Shoshilinch hospitalizatsiya uchun ko'rsatmalar.

Priapizmga shubha qilingan barcha bemorlar uchun shoshilinch kasalxonaga yotqizish ko'rsatiladi, ayniqsa vaziyat 4-6 soat ichida bartaraf etilmasa. Asosiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1. Ishemik (veno-okklyuziv) priapizm.
  - Jinsiy olatda progressiv og'riq.
  - 4 soatdan ortiq ereksiyaning saqlanishi.
  - Ereksiya kavernoza tanachalarning rigidligi va gubkasimon tananing yumshoqligi (jinsiy olat boshchasi yumshoq) bilan birga kechadi.
2. Qaytalanuvchi priapizm (anamnezda).
  - Priapizmning oldin kechilgan epizodlarining mavjudligi.
  - Vaziyat qisqa vaqt ichida o'z-o'zidan hal etilmaydi va professional aralashuvni talab qiladi.
3. Yondosh kasalliklar.
  - Priapizmni (masalan, o'roqsimon hujayrali anemiya, saraton) rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lum kasalliklari bo'lgan bemorlarni darhol kasalxonaga yotqizish kerak, chunki holat tez kuchayishi mumkin.
4. Ambulatoriya sharoitida dastlabki terapiyaning samarasizligi.
  - Agar alfa-adrenomimetiklar yoki sovuq kompresslarni qo'llash kabi ambulator choralar birinchi soat davomida natija bermasa.

### 5.2. Rejali hospitalizatsiya uchun ko'rsatmalar.

Priapizm mavjud bo'lganda rejali kasalxonaga yotqizish faqat cheklangan holatlarda, priapizmning qaytalanuvchi shakllarining profilaktikasi va davolash haqida gap ketganda mumkin, xususan:

1. Qaytalanuvchi priapizm (doimiy epizodlar bilan).
  - Priapizmning tez-tez epizodlari bo'lgan, shoshilinch yordamga muhtoj bo'lmagan, ammo qo'shimcha tekshiruvlar o'tkazish, kasallikning sababini aniqlash va uzoq muddatli profilaktika strategiyasini ishlab chiqish uchun rejalashtirilgan kasalxonaga yotqizishni talab qiladigan bemorlar.
  - Kasallikning tizimli patologiyalar (o'roqsimon hujayrali anemiya) bilan bog'liq bo'lgan surunkali shaklida asosiy kasallikni tuzatish uchun kasalxonaga yotqizish zarur.
2. Jarrohlik yo'li bilan davolashdan keyingi kuzatish.
  - SHuntlash operatsiyasi yoki boshqa jinsiy olatdagi jarrohlik aralashuvini o'tkazgan bemorlar operatsiyadan keyingi kuzatuv va qaytalanishlarning profilaktikasi uchun kasalxonaga yotqizishni talab qilishi mumkin.

Shunday qilib, shoshilinch kasalxonaga yotqizish priapizm mavjud boʻlgan bemorlarni davolashning asosiy strategiyasidir, chunki bu holatda shoshilinch tibbiy yordam talab qilinadi. Rejalashtirilgan kasalxonaga yotqizish faqat qaytalanuvchi shakllari va profilaktika choralari uchun amalga oshirilishi mumkin.

## 6. STATIONAR DARAJADA DAVOLASH TAKTIKASI.

### 6.1. Bemorni kuzatish kartasi, bemorning yo‘naltirish.

#### 6.1.1. Bemorni kuzatish kartasi:

Priapizmida bemorning stationar sharoitda kuzatish kartasi klinik holat, davolash va yaxshilanish dinamikasining to‘liq hujjatlarini o‘z ichiga oladi. Kuzatuv xaritasining asosiy bo‘limlari:

#### 1. Anketa ma’lumotlari va kasallik tarixi:

- Bemorning FISH, yoshi.
- Simptomlar boshlangan sana va vaqt.
- Kasalxonaga yotqizilgan vaqtda priapizmning davomiyligi.
- Oldingi epizodlar tarixi (agar mavjud bo‘lsa).
- Qo‘zg‘atuvchi omillarning mavjudligi (jarohatlar, dori-darmonlar, o‘roqsimon hujayrali anemiya yoki xavfli o‘smalar kabi kasalliklar).
- Dastlabki davolash va uning samaradorligi.
- Fizikal tekshiruv:
- Bemorning umumiy ahvoli.
- Jinsiy olatning holatini baholash: kavernoza tanachalarning rigidligi, jinsiy olatning boshchasi holati, og‘riqning mavjudligi.
- Jinsiy olatda pulsatsiyani tekshirish (arterial priapizmni istisno qilish uchun).
- Boshqa simptomlarning mavjudligi (og‘riq, teri rangining o‘zgarishi).

#### 2. Laborator va instrumental tashhislash usullari:

- Qonning laboratoriya ko‘rsatkichlarini baholash (umumiy qon tahlili, koagulogramma, metabolik buzilishlarni istisno qilish uchun biokimyoviy tahlil).
- Kavernoza tanachalarining qon gazlari tahlili (ishemik priapizmni istisno qilish yoki tasdiqlash).
- Jinsiy olatni dopplerografiya bilan UTT (qon oqimini baholash).
- EKG (zaruriyat bo‘lgan hollarda, ayniqsa yurak-qon tomir kasalliklari mavjud bemorlarda).

#### 3. Olib borilgan davolash choralari:

- Terapiya boshlangan sana va vaqt.
- Dori-darmonli davolash (alfa-adrenomimetiklarni kiritish, og‘riqni yo‘qotish, zarur hollarda antibiotikli terapiya).
- Jarrohlik aralashuvi (zaruriyat bo‘lgan hollarda): shuntlash operatsiyalari turlari, kavernoza tanachalarni punktsiyasi, drenajlash.
- Qo‘shimcha muolajalar (sovuq applikatsiyalar, flebotomiya va boshqalar).

#### 4. Bemor ahvoli dinamikasini baholash:

- Davolashning har bir bosqichida bemorning ahvolini ob‘ektiv baholash: jinsiy olatning rigidligining kamayishi yoki yo‘qolishi, og‘riq sindromining kamayishi, normal qon oqimining tiklanishi.
- Bemorning umumiy ahvolini baholash, hayotiy muhim ko‘rsatkichlarni nazorat qilish.

- Jinsiy olatni holati va tiklanish dinamikasini har kuni kuzatib borish amalga oshiriladi.

#### 5. Keyingi davolash va kasalxonadan chiqarish rejasi:

- Qo‘shimcha tekshiruv yoki jarrohlik aralashuvlar zarurligini aniqlash.
- Profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish (retsidiylarning oldini olish uchun dori-darmonlarni buyurish, asosiy kasallikni davolashga tuzatish kiritish, agar u aniqlangan bo‘lsa).
- Kasalxonadan chiqarishga tayyorgarlik va ambulator kuzatish va davolanish bo‘yicha tavsiyalar.

Bemorning kuzatish kartasi klinik holatning to‘liq tasvirini va o‘tkazilgan davolash samaradorligini aks ettiruvchi asosiy hujjatdir.

#### **6.1.2. Bemorni yo‘naltirish (1-rasmga qarang):**

Priapizm bilan hastalangan bemorni statsionarda yo‘naltirish tibbiy muassasaga yotqizilgan paytdan boshlab boshlanadi va tezkor diagnostika, shoshilinch yordam va keyingi davolashga qaratilgan bir qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Priapizm kechiktirib bo‘lmaydigan holat bo‘lganligi sababli, asoratlarni minimallashtirish va qaytarilmas oqibatlarining oldini olish uchun aniq va tezkor davolash jarayonini tashkil etish muhimdir.

Bemorning marshrut kartasi 1-rasmga ko‘rsatilgan.

## **6.2. Ishemik priapizmni davolash.**

O‘tkir ishemik priapizm – bu shoshilinch davolanishni talab qiladigan kechiktirib bo‘lmaydigan holat (ID: 4C), uni bosqichma-bosqich olib borish kerak. Har qanday davolash usulining maqsadi - kavernoza tanachalarga qaytarib bo‘lmaydigan shikastlanishining oldini olish uchun detumestsentsiya holatini tiklash va og‘riqni yo‘qotishdan iboratdir.


Davolash ketma-ketlikda amalga oshiriladi va samarasiz bo‘lganda, shifokor keyingi bosqichga o‘tishi kerak.

### **6.2.1. Birinchi qator davolash usullari.**

4 soatdan ko‘proq davom etadigan ishemik priapizmga jarrohlik yo‘li bilan davolashdan oldin birinchi qator davolash usullarini qo‘llash tavsiya etiladi (ID: 4C). Aksincha, ereksiya 72 soatdan ortiq davom etganda, birinchi qatorga kiruvchi usullar kerak bo‘lmagan ereksiya va og‘riqni bartaraf etishi mumkin, ammo ular erektil funktsiyani saqlab qolishda kam samaralidir (ID: 4C).

Adabiyotlarda bir nechta birinchi qator usullari tasvirlangan, jumladan, jismoniy mashqlar, ejakulyatsiya, muz qo‘yish, sovuq vannalar va sovuq suvli klizma(ho‘qna)larni o‘z ichiga olgan [8], ammo ularning samaradorligi haqida ma‘lumotlar yo‘q.

Qisman priapizm odatda analgeziyadan so‘ng o‘z-o‘zidan yo‘qoladi va bunday holatlarda kamdan-kam hollarda jarrohlik yo‘li bilan davolash talab qilinadi [9].



**1-rasm. Bemorning marshrut kartasi.**

### 6.2.2. Jinsiy olatni og'riqsizlantirish/tizimli analgeziya.

Ba'zida anesteziyasiz simpatomimetiklarni intrakavernozal yuborish bilan qonning aspiratsiyasini amalga oshirish mumkin. Biroq, jinsiy olatdagi kuchli og'riqlar og'riqsizlantirishni talab qilishi mumkin. Anesteziya ishemik og'riqlarda samarali bo'lmasa-da, teri anesteziyasi keyingi aralashuvlarni osonlashtiradi. Jinsiy olatning anesteziyasi/ tizimli analgeziya variantlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- dorzal nerv blokirovkasi; ammo, u yuqori intrakavernozal bosimdan kelib chiqqan og'riqni kamaytirmaydi;
- aylana bo'ylab jinsiy olatni blokirovkasi;
- jinsiy olat tanasining teri osti mahalliy blokirovkasi;

- og‘iz orqali qabul qilinadigan sedativ preparatlar (bolalar uchun).

### **6.2.3. Aspiratsiya ± fiziologik eritma bilan yuvish.**

4 soatdan ko‘proq davom etadigan priapizm uchun birinchi aralashuv - bu jinsiy olatning siqilishi sindromini bartaraf etishga imkon beradigan, turg‘un qonni drenajlash uchun kavernoza tanachalarning (ID: 4C) aspiratsiyasi bo‘lishi kerak. Qon aspiratsiyasi 16G yoki 18 G o‘lchamli tomir kateteri yoki «kapalak» turidagi igna yordamida boshqa orqali intrakorporal kirish yoki jinsiy olat tanasining lateral qismida perkutan kirish bilan amalga oshirilishi mumkin. Kavernoza tanachalarni drenajlash uchun ignani teri, teri osti to‘qimalari va oqsil qobig‘i orqali o‘tkazish kerak (ID: 4C).

Ba’zi shifokorlar aspiratsiyani tezlashtirish, shuningdek, simultan aspiratsiya va fiziologik eritma bilan yuvish uchun, bir vaqtning o‘zida ikkita tomir kateteri yoki «kapalak» ignalaridan foydalanadilar [10] (ID: 4C). Aspiratsiyani yorqin qizil, kislorod bilan to‘yingan qon paydo bo‘lguncha davom ettirish kerak (ID: 4C).

Ushbu usul 30% hollarda priapizm epizodini hal qilish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda keyinchalik kavernoza tanachalarni yuvish bilan aspiratsiya faqatgina aspiratsiyadan ustunroq degan xulosaga kelish uchun dalillar etarli emas (ID: 4C).

### **6.2.4. Aspiratsiya ± farmakologik preparatlarni intrakavernoza yuborish bilan birgalikda fiziologik eritma bilan yuvish.**

Hozirgi vaqtda ushbu kombinatsiya ishemik priapizmni davolashni standarti sifatida qabul qilinadi [6, 8, 11] (ID: 4C). Farmakologik preparatlar simpatomimetiklar yoki alfa-adrenomimetiklarni o‘z ichiga oladi. Intrakavernoza yuborish uchun simpatomimetik variantlarga fenilefrin, etilefrin, efedrin, epinefrin, norepinefrin va metaraminol kiradi, ular 80% dan ko‘proq hollarda samarali bo‘ladi [8, 11-19] (ID: 2B). Kamdan kam hollarda faqat adrenalinni intrakavernoza yuborish tavsiflangan [20].

**Fenilefrin.** Fenilefrin alfa-1-adrenoretseptorlariga yuqori selektivligi tufayli, beta-agonistik ta’siri bilan bog‘liq yurakka ino- va xronotrop hamroh bo‘lgan ta’sirsiz tanlangan dori preparati bo‘lib hisoblanadi [12, 16, 17] (ID: 4C). Fenilefrin odatda fiziologik eritmada 100-500 mkg/ml konsentratsiyagacha eritiladi. Odatda, 1 mg maksimal dozagachagacha 1 soatdan ko‘p bo‘lmagan vaqt davomida 200 mkg doza bilan har 3-5 daqiqada to‘g‘ridan-to‘g‘ri kavernoza tanachalarga yuboriladi, (ID: 4C).

Bolalar va og‘ir darajadagi yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan bemorlarda kamroq konsentratsiya yoki hajm qo‘llaniladi (ID: 4C). Fenilefrinni qo‘llash yurak-qon tomir tizimi tomonidan bo‘ladigan ehtimolli nojo‘ya ta’sir bilan bog‘liq [8, 11-13, 16, 17], shuning uchun 1 soat davomida har 15 daqiqada qon bosimi va pulsni baholash tavsiya etiladi. Bu yurak-qon tomir kasalliklari mavjud bo‘lgan keksa erkaklarda ayniqsa muhimdir. Preparat yuborilgandan keyin uning tarqalishini osonlashtirish uchun in’ektsiya joyini kavernoza tanachalarni massaj qilish bilan siqish mumkin.

Fenilefrinni (va boshqa simpatomimetiklarni) intrakavernoza yuborishning ehtimolli nojo‘ya ta’sirlari orasida bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, gipertenziya, reflektor bradikardiya, taxikardiya va yurakning «to‘xtab qolishi» hissi, yurak ritmi buzilishlari (yurak-qon tomir xavfi yuqori bo‘lgan erkaklar elektrokardiografiya bilan yaxshiroq kuzatilishi kerak) va sporadik subaraxnoidal qon ketishi holatlari kuzatilishi mumkin [21]. Simpatomimetiklar intrakavernoza yuborilganda qon bosimi, yurak pulsi va yurak ritmi monitoringi olib boriladi.

Umuman olganda, simpatomimetiklarni intrakavernoza yuborish xatarli yoki yomon nazorat qilinadigan gipertenziya bilan xastalangan bemorlar va

monoaminoksidaza ingibitorlarini (ID: 4C) qabul qiluvchi bemorlar uchun qo'llash mumkin bo'lmagan holat hisoblanadi.

**Etilefrin.** Etilefrin – bu ikkinchi eng ko'p ishlatiladigan simpatomimetik bo'lib, 1-2 ml fiziologik eritmaga 2,5 mg kontsentratsiyada intrakavernoz yuboriladi [13] (ID: 3B).

**Ko'k metilenli.** Ko'k metilenli – bu guanilattsiklaza ingibitori bo'lib, u kavernoza tanachalarni endoteliy vositachiligida bo'shashtirishning potentsial ingibitori bo'lishi mumkin. Preparat dori-darmonlar bilan qo'zg'atilgan priapizmning qisqa muddatli epizodlarini davolash uchun tavsiya etiladi [22, 23] (ID: 3B). Ko'k metilenli 50-100 mg dozada [22] 5 daqiqa davomida ta'sir qilish bilan intrakavernoz yuborilishi kerak. SHundan so'ng u aspiratsiya qilinadi va jinsiy olatni yana 5 daqiqa siqiladi (587). Nojo'ya ta'sirlarga vaqtinchalik loyullash (achishish) hissi va preparat yuborilgandan keyin jinsiy olatning ko'karishi kiradi.

**Adrenalin.** Adrenalinni intrakavernoz yuborish asosan vazoaktiv dori preparatlarini intrakavernoz yuborish bilan bog'liq ishemik priapizm bilan hastalangan bemorlarda (1/100000 eritmaning 2 ml dozasida 20 daqiqalik oraliq bilan 5 martagacha [20]) qo'llaniladi. Bir martalik yuborishdagi samaradorlik 50%dan oshadi, takroriy in'ektsiyalarda 95% ko'rsatkichga erishiladi (ID: 3B).

**Peroral (og'iz orqali qabul qilinadigan) terbutalin.** Og'iz orqali qabul qilinadigan terbutalin – bu kam miqdordagi beta-1 agonizmi va ba'zi alfa-adrenergik faollikka ega bo'lgan beta-2 agonistidir. Vazoaktiv dorilarni intrakavernoz yuborishdan keyin 2,5 soatdan ortiq davom etadigan ishemik priapizmni davolash uchun uning 5 mg dozasi tavsiya etiladi. Preparatning ta'sir qilish mexanizmi to'liq o'rganilmagan [24-26] (ID: 1V).

Uni qo'llash uchun asosiy ko'rsatma – davom etuvchi ereksiyaning qaytalanuvchi epizodlarini oldini olishdan iborat. Terbutalinni yurak ishemik kasalliklari, aylanma qon hajmining oshishi, shish va gipokalemiya mavjud bo'lgan bemorlarda ehtiyotkorlik bilan qo'llash kerak [26].

### 6.3. O'roqsimon-hujayrali anemiya bilan bog'liq priapizmni davolash.

Shoshilinch davolashni amalga oshirish zarur (ID: 4C). Ushbu yondashuv ishemik priapizmning boshqa turlari uchun tavsiflangan yondashuvga o'xshab ketadi [27-29] (ID: 4C).

Boshqa gematologik kasalliklarda bo'lgani kabi, bir necha yo'nalish mutaxassislarining maslahati o'tkazilishi kerak [27, 29, 30]. O'roqsimon hujayrali anemiya bilan bog'liq priapizmni davolashning o'ziga xos chora-tadbirlari bemorni aspiratsiya va kavernoza tanachalar irrigatsiyasiga tayyorlashda narkotik analgetiklarni tomir ichiga infuziyalash va parenteral yuborishni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, qo'shimcha kislorod bilan to'yintirish (oksigen) terapiyasi va bikarbonatlar bilan qonni ishqorlash tavsiya etiladi [28, 31].

To'qimalarga kislorod etkazib berishni oshirish uchun almashlab qon quyish ham taklif qilinadi [32]. Qon quyish to'g'risida qaror qabul qilganda, qon Rh va Kell antigeni bo'yicha tipiklash bilan Hb S-manfiy bo'lishi kerak [33]. SHunday bo'lsa ham, hozirgi vaqtda o'roqsimon hujayrali anemiya bo'lgan erkaklarda qon quyishning o'zi priapizmning yo'qolishiga yordam beradi degan xulosaga kelish uchun ishonchli dalillar mavjud emas. SHuni ham ta'kidlash kerakki, bir nechta tadqiqotlarda qon quyishdan

keyin jiddiy nevrologik asoratlar haqida ma'lumotlar olingan [34], garchi o'roqsimon hujayrali anemiya bilan bog'liq bo'lgan priapizm mavjud bo'lgan 10 nafar bemorlardan tashkil topgan turkumda almashlab qon quyish xavfsizligi tavsiflangan [32]. SHuni hisobga olib, mutaxassislar guruhi ushbu usuldan muntazam foydalanishni tavsiya etmaydi (ID: 4C).

#### **6.4. Arterial priapizmni (noishemik, yoki yuqori oqim priapizmini) davolash.**

Yuqori oqimli priapizm shoshilinch davolanishni talab qilmaydi, chunki jinsiy olatning ishemiyasi mavjud emas. Bu bemor bilan u davolashning xavflari va asoratlarini tushunishi uchun jarrohlik aralashuvini rejalashtirish va muhokama qilish imkonini beradi [8, 35] (ID: 3B).

##### **6.4.1. Konservativ davolash.**

Konservativ davolash chotga muz qo'yish yoki chotni siqishni o'z ichiga oladi [36-39]. U barcha holatlarda, ayniqsa bolalarda amalga oshirilishi mumkin [40] (ID: 3B). Fistula(oqim)ning o'z-o'zidan yopilishi holatlari tavsiflangan. Konservativ davolash samarasiz bo'lgan hollarda ham, jinsiy stimulyatsiyaga reaksiya bo'lganda jinsiy aloqa qilishga imkon yaratiladi. Adabiyotlarda o'z-o'zidan va tungi ereksiyalarni kamaytirish uchun fistulani yopish uchun androgen deprivatsiya o'tkazish (leyprolid, bikalutamid va ketokonazolni yuborish) holatlari tavsiflangan [41]. Biroq, jinsiy disfunktsiyaning rivojlanish xavfini hisobga olish kerak. Konservativ davolash paytida bemorlarda ED rivojlanishi yoki jinsiy olatni distal qismining rigidligi kamayishi juda kam uchraydi, shuning uchun selektiv embolizatsiyani ertaroq o'tkazish masalasini ko'rib chiqish kerak [42].

Arterial priapizmda qonni aspiratsiya qilish samarasiz bo'ladi va alfa-adrenoblokatorlarni qo'llash tavsiya etilmaydi, chunki preparatning tizimli qon oqimiga tushishi bilan bog'liq jiddiy noxush hodisalar yuzaga kelishi mumkin.

##### **6.4.2. Selektiv arterial embolizatsiya.**

Selektiv arterial embolizatsiya autologik quyqa [43-45], gel yoki shimgich [44, 46] yoki ancha permanent bo'lgan moddalar, shu jumladan spirallar [44, 46, 47] yoki akril elim [48] bilan amalga oshirilishi mumkin (ID: 3B). Nisbatan kichik randomizatsiyalanmagan tadqiqotlarda samaradorlik 89% gachani tashkil qiladi [49]. Bugungi vaqtga qadar har xil turdagi embolalarning nisbiy afzalliklarini ko'rsatadigan ishonchli ma'lumotlar olinmagan. Autologik quyqadan foydalanish hech bo'lmaganda nazariy jihatdan ba'zi afzalliklarga ega. Bu fistulaning vaqtincha yopilishiga imkon beradi, ammo autologik quyqa lizisga uchragandan keyin, arterial shikastlanish odatda saqlanmaydi va jinsiy olatdagi qon oqimi normal holatga qaytadi. Spiral kabi doimiy embolalardan foydalanish arteriyaning doimiy bloklanishiga va spontan erektil funktsiyaning buzilishiga olib kelishi mumkin. Boshqa mumkin bo'lgan asoratlarga jinsiy olatni gangrenasi, dumba ishemiyasi, kavernozi va chotda xo'ppoz (abtses) paydo bo'lishi kiradi [8, 50].

Teri osti embolizatsiyasidan keyin, 1-2 hafta davomida kuzatish olib borish etarli bo'ladi. Embolizatsiya samaradorligini klinik tekshiruv va rangli dupleks UTT yordamida aniqlash mumkin [51]. Agar shubha mavjud bo'lsa, takroran arteriografiyani amalga oshirish talab qilinadi. Bir martalik embolizatsiyadan keyin, qaytalanish tezligi 7-27% gacha etishi mumkin [44, 45, 52] (ID: 3B). Kamdan kam hollarda takroriy embolizatsiya zarur. Embolizatsiyadan keyin jinsiy funktsiya yomonlashishi mumkin,

ammo bemorlarning taxminan 80% da uning to‘liq tiklanishi kuzatiladi [52, 53] (ID: 3B).

Embolizatsiya bolalarda samarali ekanligi tavsiflangan bo‘lsa-da, u texnik jihatdan qiyin va bolalarda intervension radiologik aralashuvlar bo‘yicha mutaxassisning ishtirokini talab qiladi [15, 54].

### **6.5. Qaytalanuvchi (retsidivlanuvchi) priapizmni davolash.**

Vaqti-vaqti bilan qaytalanuvchi priapizm bilan hastalangan bemorlarni davolashning asosiy maqsadi - bu odatda, farmakologik jihatdan erishish mumkin bo‘lgan keyingi epizodlarning profilaktikasidir. Har bir o‘tkir epizodni davolash ishemik priapizmdagi yondashuvlardan farq qilmaydi: alfa-adrenomimetiklarni intrakavernoz yuborish bilan birgalikda aspiratsiya qilish/yuvish. Afsuski, turli xil davolash usullarining samaradorligi va xavfsizligi adabiyotlarda kam darajada tavsiflangan. Masalan, ko‘pgina nashrlarda holatlarning kichik turkumlari keltirilgan va ushbu davolash usullarining samaradorligi va xavfsizligi bo‘yicha nashr etilgan yaxshi ishlab chiqilgan nazorat ostida tadqiqotlar ma‘lumotlaridan ishchi guruhning foydalanish imkoniyati cheklangan [28, 31, 55].

**Alfa-adrenomimetiklar.** Vaqti-vaqti bilan qaytalanuvchi priapizm uchun og‘iz orqali qabul qilinadigan alfa-adrenomimetiklarni o‘rganish natijalari ulardan kundalik foydalanish profilaktika sifatida samarali ekanligini ko‘rsatadi [56]. Dori-darmonli terapiyaning nojo‘ya ta‘siri taxikardiya va yurakning «to‘xtab qolishi» hissini o‘z ichiga oladi. SHuningdek, birinchi qator terapiyasi sifatida psevdofedrin - keng qo‘llaniladigan peroral antikongestant ham qo‘llanilishi mumkin [25]. SHu bilan birga, uning kavernoz tanachalarning silliq mushaklariga ta‘siri to‘liq o‘rganilmagan. Etilefrin – bu alfa- adrenomimetik bo‘lib, o‘roqsimon hujayrali anemiya bilan bog‘liq vaqti-vaqti bilan qaytalanuvchi priapizmning profilaktikasi uchun muvaffaqiyatli qo‘llaniladi. Og‘iz orqali kuniga 50-100 mg dozada qabul qilinadi, samaradorligi 72% gachani tashkil qiladi [57,58]. Etilefrin va efedrindan profilaktik maqsadda foydalanishni o‘rganuvchi randomizatsiyalangan platsebo nazorati ostidagi tadqiqot bu dorilarning samaradorligida hech qanday farqni ko‘rsatmadi.

**Testosteron darajasini o‘zgartirish uchun gormonal manipulyatsiya.** Gormonal terapiyaning maqsadi androgenlarning ereksiyaga ta‘sirini kamaytirish uchun qondagi testosteron darajasini kamaytirishdir [28, 31, 59]. Bu maqsadda agonistlar yoki gonadotropin-rilizing-gormon antagonistlari (GnRG), antiandrogenlar yoki estrogenlar qo‘llaniladi [60] (ID: 4C). Ehtimolli nojo‘ya ta‘sirlarga ter quyilishi, ginekomastiya, erektil disfunktsiya, jinsiy xohish(libido)ning pasayishi va asteniya kiradi. Barcha dorilar o‘xshash samaradorlik profiliga ega (ID: 4C), ammo estrogenlarning yurak-qon tomir tizimiga salbiy ta‘siri klinik qo‘llanilishini cheklaydi. O‘rtacha samarali bo‘lgan muqobil dorilar bo‘lib 5-alfa-reduktaza inhibitorlari (669) (ID: 3B) va buyrak usti bezlari va moyaklardagi testosteron sintezini kamaytiradigan zamburuqqa qarshi ketokonazol hisoblanadi [59, 61] (ID: 4C).

Priapizm profilaktikasi uchun tavsiya etilgan gormonal dori preparatlaridan GNRG agonistlari va antiandrogenlar eng samarali va xavfsiz hisoblanadi. Ular katta yoshli erkaklarda qaytalanuvchi priapizmni birinchi qator terapiyasi uchun tavsiya etiladi (ID: 4C).

Priapizmning qaytalanishini samarali kamaytirish uchun gormonal terapiya davomiyligini aniqlash hali-xamon qiyin masala bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda terapiyaning samaradorligi, dozalari va davomiyligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin emas. Bundan tashqari, gormonal dori preparatlari kontratseptiv ta'sirga ega bo'lishi va tabiiy balog'atga etish jarayonini buzishi mumkin. SHu sababli prepubertat yoshdagi o'g'il bolalar, o'smirlar yoki farzand ko'rishga harakat qilayotgan erkaklarda gormonal dori preparatlarini qo'llashda ehtiyot bo'lish kerak. Testosteron darajasini kastratsiya darajasigacha kamaytirish kontratseptiv ta'sirga ega va o'sishdagi buzilishlarga olib kelishi va jinsiy funktsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**Digoksin.** Digoksin (ijobiy inotrop ta'sirga ega yurak glikozidi) turg'un yurak etishmovchiligini davolash uchun foydalaniladi. U silliq mushak tonusini turli xil signal beruvchi yo'llar orqali tartibga soladi, bu esa jinsiy olatning detumestsentsiyasiga olib keladi [28, 31, 51]. Digoksinning idiopatik vaqti-vaqti bilan qaytalanuvchi priapizm uchun qo'lab-quvvatlovchi dozasi (0,25-0,5 mg/kun) qo'llash kasalxonaga murojaat qilishlar sonini kamaytiradi va hayot sifatini yaxshilaydi [32]. Katta bo'lmagan, ikki tomonlama ko'r (yopiq) platsebo-nazorati ostida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, digoksinni (0,25-0,5 mg/kun) qabul qilish testosteron, estrogen va luteinlashtiruvchi gormonlar darajasidagi o'zgarishlardan qat'iy nazar, jinsiy olat rigidligining pasayishi bilan birga jinsiy xohish va ixtirosning pasayishiga olib keladi [51] (ID: 2B). Tez-tez uchraydigan nojo'ya ta'sirlarga libidoning pasayishi, anoreksiya, ko'ngil aynishi, qusish, bezovtalik, ko'rishning xiralashishi, bosh og'rig'i, ginekomastiya, toshma va aritmiya kiradi.

**Terbutalin.** Vazodilatatsiyani yuzaga keltiradigan beta-agonist bo'lgan terbutalin tomirlar silliq mushaklarining bo'shashishiga olib keladi [28, 31]. Og'iz orqali qabul qilinganda, detumestsentsiyaning 36% tezligi bilan alprostadiolni yuborish bilan bog'liq bo'lgan vaqti-vaqti bilan qaytalanuvchi priapizmning oldini olish imkonini beradi [25] (ID: 3B). YAgona randomizatsiyalangan platsebo-nazorat ostidagi tadqiqotda (n=68), shu jumladan farmakologik indutsiyalangan priapizm mavjud bo'lgan bemorlarda terbutalin guruhida detumestsentsiya uchrash darajasi platsebo guruhidagi 15% ga nisbatan 42% ni tashkil etdi [26] (ID: 1B). Ko'p uchraydigan nojo'ya ta'sirlarga asabiylashish, terlash, uyquchanlik, yurakning «to'xtab qolishi» hissi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ter quymilishi, ko'ngil aynishi va quvvatsizlik kiradi.

**Gabapentin.** Gabapentin talvasaga tushishga qarshi, antinotsitseptiv va anksiolitik ta'sirga ega va og'riq qoldiruvchi va antiepileptik(tutqanoqqa qarshi) dori preparati sifatida keng qo'llaniladi. Nazarda tutilgan ta'sir mexanizmi sinaptik uzatishni osonlashtiradigan potentsial bog'langan kaltsiy kanallarini ingibirlash bilan [59], testosteron va follikullarni rag'batlantiruvchi gormonlar darajasining pasayishi bilan bog'liq [62]. Preparat kuniga 4 marta 400 mg dozada har kuni 2400 mg-gacha, jinsiy olatni to'liq detumestsentsiyasigacha, keyingi qo'llab-quvvatlovchi kuniga 300 mg dozada qabul qilish bilan, qabul qilinadi (ID: 4C). Tez-tez uchraydigan nojo'ya ta'sirlarga anorgazmiya va erektill funktsiyaning buzilishi kiradi.

**Baklofen.** Baklofen - miorelaksant va spazmolitik sifatida ta'sir ko'rsatadigan gamma-aminomoy kislotasi (GAMK) hosilasidir. U GAMK- faolligi yordamida ereksiya va ejakulyatsiya rivojlanishini ingibirlashi va nevrologik kasalliklarda qaytalanuvchi refleksogen yoki uzoq muddatli ereksiyani profilaktika qilishi mumkin [64]. Baklofenni og'iz orqali qabul qilish kam samaraga ega va odatda vaqti-vaqti bilan

qaytalanuvchi priapizmida qo'llanilmaydi, garchi preparatni intratekal yuborish samaraliroq bo'lsa ham [28, 65-67] (ID: 4C). Tez-tez uchraydigan nojo'ya ta'sirlarga uyquchanlik, bezovtalik, bosh aylanishi, quvvatsizlik, charchoq, bosh og'rig'i, gipotenziya va ko'ngil aynish kiradi.

**Gidroksiurea.** Gidroksiurea S-fazada hujayralarni bloklaydigan ribonukleotidreduktazani ingibirlash orqali DNK sintezini bloklaydi [59, 68]. Ushbu dori preparati o'roqsimon hujayrali anemiyada samaradorligini isbotladi va kutilgan umr ko'rish davomiyligini oshiradi [27, 69]. Adabiyotlarda o'roqsimon hujayrali anemiya va qaytalanuvchi priapizm bo'lgan bemorlarda gidroksiureyani profilaktika maqsadida qo'llash bo'yicha cheklangan ma'lumotlar keltiriladi (ID: 3B) [59, 68, 70]. Ehtimolli nojo'ya ta'sirlarga oligospermiya va oyoqda yaralarning paydo bo'lishi kiradi.

**5-toifali fosfodiesteraza ingibitorlari.** FDE-5 ingibitorlarining past dozalari asosan idiopatik toifadagi va o'roqsimon hujayrali anemiya bilan bog'liq priapizm bo'lgan bemorlarda vaqti-vaqti bilan qaytalanuvchi priapizmni bartaraf etish va profilaktikasida paradoksal ta'sirga ega [28, 31, 71-74] (ID: 3B). Priapizmni davolash uchun FDE-5 ingibitorlaridan foydalanganda shuni yodda tutish kerakki, faqat jinsiy olat detumestsentsiya holatida bo'lganda uni qabul qilishni boshlash kerak, o'tkir epizod paytida emas. Samaradorlik FDE-5 ingibitorlarini tizimli ravimda qabul qilish boshlanganidan 1 hafta o'tgach kuzatiladi. Adabiyotlarda jinsiy funktsiyaning buzilishi tavsiflanmagan (ID: 3B). FDE-5 ingibitorlarining ta'siri asosiy kasallikning fonida priapizm bilan yuzaga keladigan NO funktsiyasining buzilishi holatida silliq mushaklarda tsGMF kontsentratsiyasini oshirish hisobiga FDE-5 funktsiyasini oshirishga asoslangan. Jinsiy olatda FDE-5 regulyatsiyasining pasayishi bilan NO signal berish yo'lidagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin, bu kavernoza tanachalarda tsGMFning to'liq parchalanishiga to'sqinlik qiladi [28, 31, 71, 73].

**Intrakavernoza in'ektsiyalar.** Vaqti-vaqti bilan qaytalanuvchi priapizm bo'lgan istalmagan ereksiyalarning qaytalanishini oldini olish uchun tizimli terapiya boshlangan ba'zi bemorlarda tez terapevtik ta'sir bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda uy sharoitida simpatomimetiklarni mustaqil intrakavernoza yuborish vaqtincha talab qilinishi mumkin [28, 31]. Fenilefrin va etilefrin (ishemik priapizmni davolash uchun yuqorida tavsiflanganidek) ko'proq ishlatiladi [6, 57, 75, 76] (ID: 3B). Tez-tez uchraydigan nojo'ya ta'sirlarga gipertenziya, koronar ishemiya va aritmiya kiradi.

Plazminogenning to'qimali faollashtiruvchisi (PTF) - qonda ajralib chiqadigan proteaz bo'lib, proferment plazminogeni fibrinolitik ferment sifatida ta'sir qiladigan plazminga aylantiradi. Cheklangan klinik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, PTFning bir martalik intrakavernoza yuborilishi vaqti-vaqti bilan qaytalanuvchi priapizmni davolashda samarali bo'ladi [59, 77] (ID: 3B). Tez-tez uchraydigan nojo'ya ta'sirlarga - katta bo'lmagan qon ketishi kiradi.

### Statsionar sharoitda priapizmida qo'llaniladigan asosiy dori preparatlari ro'yxati

Farmako-terapevtik guruh	Dori vositasining XPN	Qo'llash usuli	Isbotlan-ganlik darajasi	Havolalar
Narkotik bo'lmagan	Metamizol natriy	Tabletkalar 500 mg in'ektsiya uchun eritma 250	4C	<a href="https://mediclub.com/mnn/8b7cd7c0-75af-4b20-8537-fc1138761252">https://mediclub.com/mnn/8b7cd7c0-75af-4b20-8537-fc1138761252</a>

analgetiklar		mg/ ml; 500 mg/ml		
	Paratsetamol	Tabletkalar 200 mg; 500 mg suspenziya 120 mg/5 ml sirop 2,4% 40 ml; 50 ml; 60 ml; 90 ml; 100 ml shamlar 50 mg; 100 mg; 125 mg; 250 mg infuziya uchun eritma 10 mg/ml 200 mg/ 20 ml; 1000 mg/ 100 ml	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/097dc237-6ef0-43ef-af66-2c662cf1b29f">https://mediqlab.com/mnn/097dc237-6ef0-43ef-af66-2c662cf1b29f</a> <a href="https://drugs.ncats.io/drug/36209ITL9D">https://drugs.ncats.io/drug/36209ITL9D</a>
Nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori vositalari	Diklofenak	Tabletkalar 25 mg; 46,5 mg; 50 mg; 75 mg; 100 mg 75 mg; 100 mg kapsulalar 25 mg/ml; 75 mg/3 ml; in’ektsiya uchun eritma 1 ml; 3 ml	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/f824419e-4a10-499e-955d-755bb9f4b7c7">https://mediqlab.com/mnn/f824419e-4a10-499e-955d-755bb9f4b7c7</a> <a href="https://drugs.ncats.io/drug/14408QL0L1">https://drugs.ncats.io/drug/14408QL0L1</a>
	Ketoprofen	In’ektsiya uchun eritma 50 mg/ml; 100 mg/2 ml Kapsulalar 50 mg; 100 mg; 150 mg; 200 mg forte tabletkalar 100 mg; 150 mg 100 mg rektal shamlar	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/36a4558f-e3ca-46d1-a922-b3ceadab881d">https://mediqlab.com/mnn/36a4558f-e3ca-46d1-a922-b3ceadab881d</a>
	Ibuprofen	Tabletkalar 200 mg; 400 mg; 800 mg; kapsulalar 200 mg; 300 mg; 400 mg 100 mg/5 ml; 200 mg/5ml; 60 ml; 100 ml; 120 ml; 150 ml; 200 ml suspenziya 400 mg/4 ml 4 ml; 800 mg/8 ml 8 ml infuziya uchun eritma sirop 100 mg/5 ml shamlar 60 mg, 125 mg	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/9c694f61-32ef-45e7-9500-6e19acd47f73">https://mediqlab.com/mnn/9c694f61-32ef-45e7-9500-6e19acd47f73</a>
	Deksketoprofen	Tabletkalar 25 mg In’ektsiya uchun eritma 25 mg/2 ml; 50 mg/ 2ml	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/bee5cfc4-f97b-4f64-b7d8-e8c950345480">https://mediqlab.com/mnn/bee5cfc4-f97b-4f64-b7d8-e8c950345480</a> <a href="https://drugs.ncats.io/drug/6KD9E78X68">https://drugs.ncats.io/drug/6KD9E78X68</a>
	Meloksikam	Tabletkalar 7,5 mg; 15 mg 10 mg/1,5 ml; 15 mg/1,5 ml; 5 mg/ml 3 ml in’ektsiya uchun eritma; shamlar 7,5 mg; 15 mg	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/7c563906-24f8-4a4f-8abd-69b1fc313bbe">https://mediqlab.com/mnn/7c563906-24f8-4a4f-8abd-69b1fc313bbe</a>
	Ketorolak	Tabletkalar 7,5 mg; 10 mg; 30 mg/ml 1 ml; 2 ml	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/1f5095c-4fab-4386-b191-d23ab8d934a1">https://mediqlab.com/mnn/1f5095c-4fab-4386-b191-d23ab8d934a1</a>

		in'ektsiya uchun eritma;		
Alfa-adrenomi-metiklar	Psevdoefedrin	Kuniga 2-3 marta 30-60 mg	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/8e3d6b30-bdee-454b-927e-f8b27bd159b6">https://mediqlab.com/mnn/8e3d6b30-bdee-454b-927e-f8b27bd159b6</a>
	Fenilefrin	1. 200 mkg ni intrakavernoz yuorish har 3–5 daqiqada. 2. Maksimal doza – 1 soatda 1 mg. 3. Bolalar va og'ir yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlar uchun kamroq doza tavsiya etiladi	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/2c169b5b-4470-4e42-9b28-b9570032a4cd">https://mediqlab.com/mnn/2c169b5b-4470-4e42-9b28-b9570032a4cd</a>
Simpatomimetik	Etilefrin	1-2 ml fiziologik eritmada 2,5 mg kontsentratsiyada intrakavernoz yuborish	3B	<a href="https://en.wikipedia.org/wiki/Etilefrine">https://en.wikipedia.org/wiki/Etilefrine</a>
Gualinat-siklaza ingibitori	Ko'k metilenli	5 daqiqalik ta'sir qilish bilan 50-100 mg intrakavernoz yuborish. SHundan so'ng, aspiratsiya amalga oshiriladi va jinsiy olatni yana 5 daqiqa davomida siqiladi.	3B	<a href="https://mediqlab.com/drugs/dc9ce261-4d3d-4e80-a45d-a7614e329290">https://mediqlab.com/drugs/dc9ce261-4d3d-4e80-a45d-a7614e329290</a>
Alfa va beta-adrenomimetik	Adrenalin	2 ml 1/100000 adrenalin eritmasini 20 daqiqa davomida 5 martagacha intrakavernoz yuborish.	3B	<a href="https://mediqlab.com/drugs/93618133-4a63-4995-b2db-58172dbbd423">https://mediqlab.com/drugs/93618133-4a63-4995-b2db-58172dbbd423</a>
Beta-adrenomimetik	Terbutalin	2,5 soatdan ortiq davom etadigan uzoq muddatli ereksiyada vazoaktiv dori preparatlarini intrakavernoz yuborishdan keyin 5 mg ichish.	1B	<a href="https://mediqlab.com/mnn/b14540c5-35d2-409e-9b2d-3712f9623552">https://mediqlab.com/mnn/b14540c5-35d2-409e-9b2d-3712f9623552</a>
Gonadotropin-rilizing-gormon antagonistlari (GnRG)	Setroreliks	0,25 mg-dan flakonlar Dozalash rejimi individual, o'rnatilgan davolash sxemasiga ko'ra.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/5b01d7f8-c3bc-46f5-bc2d-e2ff09e120a0">https://mediqlab.com/mnn/5b01d7f8-c3bc-46f5-bc2d-e2ff09e120a0</a>
	Ganireliks	iXG bilan birgalikda qat'iy tartibda individual tarzda o'rnatilgan maxsus sxemaga muvofiq qo'llaniladi. Teri ostiga yuboriladi, bir martalik doza - 250 mkg.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/c063bff9-c937-49ac-9176-7c8710c09b3a">https://mediqlab.com/mnn/c063bff9-c937-49ac-9176-7c8710c09b3a</a>
Gonadotropin-rilizing-	Buserelin	Burun spreyi - begona qo'shimchalarsiz rangsiz shaffof suyuqlik shaklida	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/77f44902-adc8-4305-96a4-fbc3de8f2aba">https://mediqlab.com/mnn/77f44902-adc8-4305-96a4-fbc3de8f2aba</a>

gormon antagonistlari (GnRG)		dozalangan. Buserelin atsetat 1 doza - 150 mkg, 1 flakon - 2,1 mg Uzoq muddatli ta'sirga ega mushak ichiga yuborish uchun suspenziya tayyorlash uchun liofilizat 3,75 mg: to'plamda flakon - 1 dona, erituvchi bilan		
	Gozerelin	SHprips-aplikatorda implant - tsilindrsimon shakldagi qattiq polimer materialning oq yoki deyarli oq qismlari mavjud, dog'lar bo'lishiga ruxsat beriladi. 1 implant - Gozerelin 3,6 yoki 10,8 mg: to'plamda flakon - 1 dona 1 dona, erituvchi bilan	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/6f49c47a-0c9e-4e84-8b0e-f9b2bcac0e15">https://mediqlab.com/mnn/6f49c47a-0c9e-4e84-8b0e-f9b2bcac0e15</a>
	Gistrelin	Uzoq muddatli ta'sirga ega mushak ichiga yuborish uchun suspenziya tayyorlash uchun liofilizat, 1 fl - 50 mg gisterelin: to'plamda flakon - 1 dona 1 dona, erituvchi bilan	4C	<a href="https://rx.ua/ru/inn-mnn/gistrelin">https://rx.ua/ru/inn-mnn/gistrelin</a>
	Leyprorelin	Uzoq muddatli ta'sirga ega mushak ichiga yuborish uchun suspenziya tayyorlash uchun liofilizat, 1 fl – 3,75 yoki 7,5 mg leyprorelin: to'plamda flakon - 1 dona 1 dona, erituvchi bilan	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/550d879f-3d26-4530-befe-46f658274514">https://mediqlab.com/mnn/550d879f-3d26-4530-befe-46f658274514</a>
	Triptorelin	Uzoq muddatli ta'sirga ega mushak ichiga yuborish uchun suspenziya tayyorlash uchun liofilizat, 1 fl - 3.75 mg: to'plamda flakon - 1 dona 1 dona, erituvchi bilan	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/b56e4c81-ef09-4864-849b-b26295083474">https://mediqlab.com/mnn/b56e4c81-ef09-4864-849b-b26295083474</a>
Antiandrogenlar (testosteron blokatorlari)	Abirateron	Plyonka bilan qoplangan peroral tabletkalar 250 mg: 120 dona. Tavsiya etilgan sutkalik doza - kuniga 1 marta 1000 mg, ovqatdan 1 soat oldin	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/274a76e7-11b7-4e22-b54b-6583c36b3c4c">https://mediqlab.com/mnn/274a76e7-11b7-4e22-b54b-6583c36b3c4c</a>

		yoki ovqatdan 2 soat keyin ichiladi.		
	Allilestrenol	Peroral tabletklar 5mg-dan. Bir martalik doza - 5 mg, sutkalik doza 10 dan 40 mg-gacha o'zgaradi.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/954f1e5b-c1cd-41ca-a26c-7efc72f6e4e9">https://mediqlab.com/mnn/954f1e5b-c1cd-41ca-a26c-7efc72f6e4e9</a>
	Aminoglu-tetimid	Dozalash rejimi individual tartibda tanlanadi. Odatda kuniga 2 marta 125 mg dan (odatda soat 8-9 va 16-18 da), zarur bo'lsa - kuniga 4 marta, kamida 6 soatlik oraliq bilan, kortizolning plazmali tarkibini nazorati (monitoring afzalroq) ostida, kortizol darajasi etarlicha kamaymasa, yaxshi qabul qilinadigan dozaga erishilgunga qadar doza 1-2 hafta oralig'ida haftasiga 250 mg-ga asta-sekin oshiriladi (kuniga 1 g-dan ko'p bo'lmagan holda); maksimal dozasi - kuniga 2 g.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/9e913d21-5abb-4172-afd0-36eafe1cb90e">https://mediqlab.com/mnn/9e913d21-5abb-4172-afd0-36eafe1cb90e</a>
	Apalutamid	Plyonka bilan qoplangan tabletkalar, 60 mg. Tavsiya etilgan doza - 240 mg (60 mg dan 4 ta bir martalik doza), kuniga 1 marta ichiladi.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/d27183c-e56c-46cf-a008-01884b770fad">https://mediqlab.com/mnn/d27183c-e56c-46cf-a008-01884b770fad</a>
	Bikalutamid	Peroral tabletkalar, 50mg. Ovqat iste'mol qilishdan qat'iy nazar ichiladi, etarli miqdordagi suyuqlik bilan ichish kerak.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/a363bb31-7530-4dce-8211-361bc041ba6b">https://mediqlab.com/mnn/a363bb31-7530-4dce-8211-361bc041ba6b</a>
	Xlormadinon atsetat	Past dozali peroral tabletkalar (2 mg xlormadinon atsetat etinilestradiol bilan birgalikda). Past va o'rtacha dozali peroral tabletkalar (2, 5, 10, 25 mg).	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/b8f899eb-7c3e-433b-a247-aabd5d2a802a">https://mediqlab.com/mnn/b8f899eb-7c3e-433b-a247-aabd5d2a802a</a>

		Peroral tabletkalar faqat yuqori dozalarda (50 mg). Doza individual tartibda tanlanadi. Og‘iz orqali qabul qilinadi, har kuni 1 tabletkadan.		
	Siproteron atsetat	Mushak ichiga yuborish uchun eritma (yog‘li), 100 mg/ml. Peroral tabletkalar 50 mg. Dozalash rejimi individual tartibda belgilanadi	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/75727b19-2520-4d4f-ab70-4affdb7cada3">https://mediqlab.com/mnn/75727b19-2520-4d4f-ab70-4affdb7cada3</a>
	Delmadinon atsetat	1 ml-da 10 mg delmadinon atsetat bo‘lgan suvli suspenziya. 1ta flakon 10 ml. Mushak ichiga va teri ostiga in‘ektsiyalar. Dozalash rejimi individual tartibda belgilanadi.	4C	<a href="https://www.chemicalbook.com/chemicalproductproperty_ru_cb8900128.htm">https://www.chemicalbook.com/chemicalproductproperty_ru_cb8900128.htm</a>
	Enzalutamid	Peroral kapsulalar, enzalutamid 40,0 mg; Ichiladi, 1 marta/kuniga, Dozalar individual tartibda 40mg dan 160mg-gacha diapazonda tanlanadi. Tavsiya etilgan doza 160mg (4ta kapsula) 1 marta/kuniga.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/c3470e7-14ca-4550-b264-1c86097ae22e">https://mediqlab.com/mnn/c3470e7-14ca-4550-b264-1c86097ae22e</a>
	Flutamid	Peroral tabletkalar 250 mg: Dozalash rejimi individual tartibda belgilanadi. Tavsiya etilgan doza - 250 mg, 3 marta/kuniga ichiladi.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/7e3588ac-036e-4cb6-a668-e1bc5a475740">https://mediqlab.com/mnn/7e3588ac-036e-4cb6-a668-e1bc5a475740</a>
	Gestoronon kaproat	Mushak ichiga yuborish uchun moyli eritma bo‘lgan ampulalar 2,0 ml (1,0 ml- da 100 mg). Haftada bir marta mushak ichiga 2 ml-dan (4 ml gacha) qo‘llaniladi.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/171de789-bac9-4604-8f5a-623252951668">https://mediqlab.com/mnn/171de789-bac9-4604-8f5a-623252951668</a>
	Gidroksipro-gesteron kaproat	Mushak ichiga yuborish uchun moyli eritma - 125 mg/1 ml. Dozalash rejimi individual	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/0393c064-68ea-4ac2-908d-ffb02086a235">https://mediqlab.com/mnn/0393c064-68ea-4ac2-908d-ffb02086a235</a>

		tartibda belgilanadi.		
	Ketokonazol	Peroral tabletkalar 200 mg. 1 tada qabul qilish bilan ovqatlanish paytida ichiladi. Kattalar uchun maksimal sutkalik doza 1200 mg-gacha (kuniga 3 marta 400 mg-dan).	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/d02f1eaf-cb5e-4f21-a5ef-ba0f9771e741">https://mediqlab.com/mnn/d02f1eaf-cb5e-4f21-a5ef-ba0f9771e741</a>
	Medroksiprogesteron atsetat	Peroral tabletkalar 500mg va m/i yuborish uchun suspenziya 1,0 ml-da 150mg. Dozalash rejimi individual tartibda belgilanadi.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/e4c2f4a8-67d3-458b-9136-dcbb1b4b4527">https://mediqlab.com/mnn/e4c2f4a8-67d3-458b-9136-dcbb1b4b4527</a>
	Megestrol atsetat	Peroral tabletkalar 160mg, bir marta yoki 2–4 marta qabul qilish bilan ichiladi. Dozalash rejimi individual tartibda belgilanadi.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/6a3a69d1-56e1-4cd4-a72f-e7034cdeff6c">https://mediqlab.com/mnn/6a3a69d1-56e1-4cd4-a72f-e7034cdeff6c</a>
	Nilutamid	Peroral tabletkalar 150mg. Ko‘p miqdorda suv bilan ichiladi, 1 yoki 2 marta/kuniga. Dozalash rejimi individual tartibda belgilanadi.	4C	<a href="https://mediqlab.com/mnn/859045b8-0300-4fe7-84ca-3f1bdf27ade3">https://mediqlab.com/mnn/859045b8-0300-4fe7-84ca-3f1bdf27ade3</a>
	Oksendolon	Peroral tabletkalar 10mg. Doza individual tartibda tanlanadi. Odatda 5 dan 20mg gacha oksendolon kuniga, 2-4 marta qabul qilishga bo‘lingan holda ichiladi.	4C	<a href="https://www.mskcc.org/ru/cancer-care/patient-education/medications/adult/oxandrolone">https://www.mskcc.org/ru/cancer-care/patient-education/medications/adult/oxandrolone</a>
